



ONA -HAYOTNING ENG BUYUK MO'JIZASI

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani 3-ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat
umumta'lim maktabi o'quvchisi*

Abduhamidova Farzona Dilshodbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola onalarning hayotimizdagi bebaho o'rni, ularning hayotimizning eng buyuk mo'jizasi ekanligini o'rganadi. Maqolada onalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, oila mustahkamligini ta'minlashdagi hissasi, shuningdek, jamiyatdagi faoliyati va yutuqlari tahlil qilinadi. Maqola onalarning mehr-muhabbati, fidoyiligi va sabr-toqati inson hayotida muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi va ularga bo'lgan hurmatimizni namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Ona, mo'jiza, hayot, tarbiya, oila, jamiyat, mehr, fidoyilik, hurmat, minnatdorchilik.

Annotatsiya: This article explores the invaluable role of mothers in our lives, recognizing them as the greatest miracle of life. The article analyzes the role of mothers in raising children, their contribution to ensuring family stability, as well as their activities and achievements in society. The article emphasizes that the love, dedication, and patience of mothers play a crucial role in human life and demonstrates our respect for them.

Kalit so'zlar: Mother, miracle, life, upbringing, family, society, love, dedication, respect, gratitude.

Dunyoda onadan aziz , onadan buyuk , onadan mòtabar zot yòq. Ona-bu hayotning òzi , ona-bu mehrning ibtidosi , ona-bu sabr , sadoqat va fidoyilikning timsoli. Uning borligi-farzand uchun eng katta ne'mat , uning duosi-hayot yòlimizdagi eng yoruğ chiroqdir.



Onaning mehri cheksiz osmon. Ona mehri-tengsiz. U hech qanday evaz kutmaydi , hech qachon sònmaydi. Onaning muhabbati shunchalik beğarazki , hatto farzandi uni yomon kòrganda ham , undan uzoqlashganida ham u yuragida hamon òsha mehrni saqlaydi. Onaning mehri dengiz misoli-qigòqqa qayta va qayta uriladi , lekin hech qachon tòxtamaydi. Biz bolaligimizda yiqilamiz , onamiz bizni kòtarib , changimizni qoqib , shirin sòzlari bilan yupatadi. Biz ulğayganimizda esa kònglimiz qoqiladi , hayot bizni yerga uradi , lekin yana ham òsha onamiz mehriga ehtiyoj sezamiz. Chunki ona qòllari-eng iliq panoh , ona bağri -eng ishonchli qal'a.

Onaning sabri-toğdan ham ulkan. Dunyoda onadan sabrliroq inson bormikin? U bizning har bir shòxligimizga chidaydi , har bir injiqligimizga dosh beradi. Biz uni ranjitganimizni bilmaysiz , lekin u yuragining eng oğriqli joylariga bolasi uchun tosh qòyadi. Onaning sabri cheksiz , uning qalbi daryo. Necha yillar davomida bola tarbiyasi , oilaning tinchligi uchun òzini unutgan onalar qancha? Ularning kòzlaridagi charchoqni payqamaymiz , biz uchun necha tunlar uyqusiz òtganini ham his qilmaymiz. Ammo ona hech qachon shikoyat qilmaydi. U faqat duoda:„ Bolam soğ salomat bòlsin , baxtli bòlsin“ deydi.

Onaning duosi-farzandning qalqoni. Onaning duosi eng pok , eng samimiy duo. U farzandi qayerda bòlmasin , yuragida unga faqat yaxshilik tilaydi. Onaning duosi bilan farzand hayotida mòjizalar sodir bòladi. U har safar qiyinchlikka duch kelganda , onaning òsha tinimsiz ibodatlarini uni asraydi. Lekin bazida biz onamizni unutamiz. Hayot tashvishlariga berilib , uni xotiramizning chekkasiga suramiz. Uning aytgan sòzlariga e'tibor bermaymiz , „Ertaga qònğiroq qilaman"deymiz-u , oradan oylar òtib ketadi.

Onani qadrlash-farzandning eng muqaddas burchi. Ona borida-hayot gòzal. U yo‘qolganida esa qoralashadi, katta eng yorqin quyosh ham o‘z nurlarini sochmay qo‘yadi. Shuning uchun onalarimizi asraylik, ularning har bir so‘zini yurak bilan tinglaylik, ularning qo‘llarini mahkam ushlaylik. Chunki bir kuni bu qo‘llarni ushlashga imkon qolmaydi . Agar hozir onangiz yoningizda bo‘lsa, unga bor



mehringizni bering. Uning ko‘zlariga boqib " Men sizni yaxshi ko‘raman" deng. Unga minnatdorchilik bildiring , uni ardoqlang. Chunki dunyoda onadan aziz inson yòq , onaning mehri hech narsa bilan òlchalmaydi.

Ona-jannat eshigi, ona- hayotning chiroği, ona- eng buyuk mòjiza!

Abduhamidova Farzona Dilshodbek qizi

Dunyoda onadan aziz , onadan buyuk , onadan mòtabar zot yòq. Ona-bu hayotning òzi , ona-bu mehrning ibtidosi , ona-bu sabr , sadoqat va fidoyilikning timsoli. Uning borligi-farzand uchun eng katta ne‘mat , uning duosi-hayot yòlimizdagi eng yoruğ chiroqdir.

Onaning mehri cheksiz osmon. Ona mehri-tengsiz. U hech qanday evaz kutmaydi , hech qachon sònmaydi. Onaning muhabbati shunchalik beğarazki , hatto farzandi uni yomon kòrganda ham , undan uzoqlashganida ham u yuragida hamon òsha mehrni saqlaydi. Onaning mehri dengiz misoli-qigòqqa qayta va qayta uriladi , lekin hech qachon tòxtamaydi. Biz bolaligimizda yiqilamiz , onamiz bizni kòtarib , changimizni qoqib , shirin sòzlari bilan yupatadi. Biz ulğayganimizda esa kònglimiz qoqiladi , hayot bizni yerga uradi , lekin yana ham òsha onamiz mehriga ehtiyoj sezamiz. Chunki ona qòllari-eng iliq panoh , ona bağri -eng ishonchli qal'a.

Onaning sabri-toğdan ham ulkan. Dunyoda onadan sabrliroq inson bormikin? U bizning har bir shòxligimizga chidaydi , har bir injiqligimizga dosh beradi. Biz uni ranjitganimizni bilmaysiz , lekin u yuragining eng oğriqli joylariga bolasi uchun tosh qòyadi. Onaning sabri cheksiz , uning qalbi daryo. Necha yillar davomida bola tarbiyasi , oilaning tinchligi uchun òzini unutgan onalar qancha? Ularning kòzlaridagi charchoqni payqamaymiz , biz uchun necha tunlar uyqusiz òtganini ham his qilmaymiz. Ammo ona hech qachon shikoyat qilmaydi. U faqat duoda:,, Bolam soğ salomat bòlsin , baxtli bòlsin“ deydi.

Onaning duosi-farzandning qalqoni. Onaning duosi eng pok , eng samimiy duo. U farzandi qayerda bòlmasin , yuragida unga faqat yaxshilik tilaydi. Onaning duosi bilan farzand hayotida mòjizalar sodir bòladi. U har safar qiyinchlikka duch



kelganda , onaning òsha tinimsiz ibodatlari uni asraydi. Lekin bazida biz onamizni unutamiz. Hayot tashvishlariga berilib , uni xotiramizning chekkasiga suramiz. Uning aytgan sòzlariga e'tibor bermaymiz , „Ertaga qòngiroq qilaman"deymiz-u , oradan oylar òtib ketadi.

Onani qadrlash-farzandning eng muqaddas burchi. Ona borida-hayot gòzal. U yo‘qolganidaesa qoralashadi, katta eng yorqin quyosh ham o‘z nurlarini sochmay qo‘yadi. Shuning uchun onalarimizi asraylik, ularning har bir so‘zini yurak bilan tinglaylik, ularning qo‘llarini mahkam ushlaylik. Chunki bir kuni bu qo‘llarni ushlashga imkon qolmaydi . Agar hozir onangiz yoningizda bo‘lsa, unga bor mehringizni bering. Uning ko‘zlariga boqib " Men sizni yaxshi ko‘raman" deng. Unga minnatdorchilik bildiring , uni ardoqlang. Chunki dunyoda onadan aziz inson yòq , onaning mehri hech narsa bilan òlchalmaydi.

Ona-jannat eshigi, ona- hayotning chirogi, ona- eng buyuk mòjiza!

Xulosa:

Ona - bu hayotning eng buyuk mo'jizasi. U farzandlarini dunyoga keltirar ekan, nafaqat jismoniy, balki ruhiy jihatdan ham ularga hayot baxsh etadi. Onaning mehr-muhabbati, fidoyiligi va sabr-toqati inson hayotida muhim o'rin tutadi. U oilaning mustahkamligi va jamiyatning barqarorligi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Onalarga bo'lgan hurmatimizni doimo namoyon etishimiz, ularning mehnatini qadrlashimiz va minnatdorchilik bildirishimiz zarur. Chunki ona - bu nafaqat hayotimizning asosiy tayanchi, balki hayotimizning eng buyuk mo'jizasidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizova, M. (2018). *O'zbek ayoli: kecha va bugun*. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti.
2. Bekmurodov, A. (2015). *Oila va jamiyat*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.



3. G'afurova, D. (2019). *O'zbek oilasida ayolning o'rni*. Toshkent: "Sharq" nashriyoti.
4. Qodirova, R. (2017). *Oila psixologiyasi*. Toshkent: "Navro'z" nashriyoti.
5. Umarova, N. (2016). *Oila va huquq*. Toshkent: "Adolat" nashriyoti.
6. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi*.
7. *Oila kodeksi*.
8. O'zbek xalq maqollari va matallari (ona haqida).
9. Turli ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalar.
10. Internet manbalari.